

**BOSHLANG'ICH TA'LIM TABIIY FANLARI DARSLARIDA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH**

Alimardanova Mutabar Xolmo'minovna Shahrisabz davlat pedagogika
instituti Tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Xurramova Ra'no G'olibjon qizi Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotasiya: Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarga ilmiy bilimlarni yanada samarali va interaktiv tarzda oshirish imkoniyatini yaratadi. Axborot texnologiyalari darslarda vizual, eshita olish va interaktiv materiallar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonini jonlantiradi. Kompyuterlar, internet, ta'limga mo'ljallangan ilovalar va multimedia vositalari yordamida tabiiy fanlarni o'rgatish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va amaliyotga nisbatan ilg'or fikrlashni rivojlantiradi. Ushbu texnologiyalar darslarning samaradorligini oshirib, o'quvchilarning o'rganish jarayonini qulaylashtiradi va bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Annotation: The use of information technologies in primary education natural science lessons allows students to improve their scientific knowledge in a more effective and interactive way. Information technologies increase students' interest in the lessons through visual, auditory and interactive materials and enliven the educational process. Teaching natural sciences using computers, the Internet, educational applications and multimedia tools broadens students' scientific outlook and develops progressive thinking in practice. These technologies increase the effectiveness of lessons, facilitate the learning process of students and play an important role in consolidating knowledge.

Абстрактный: Использование информационных технологий на уроках естествознания в начальной школе позволяет учащимся более эффективно и интерактивно расширять свои научные знания. Информационные технологии

оживляют процесс обучения, повышая интерес учащихся с помощью визуальных, слуховых и интерактивных материалов на уроках. Преподавание естественных наук с использованием компьютеров, Интернета, образовательных приложений и мультимедийных средств расширяет научный кругозор учащихся и развивает передовое мышление на практике. Эти технологии повышают эффективность уроков, облегчают процесс обучения учащихся и играют важную роль в закреплении знаний.

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari, ta'lim jarayoni, multimedia, interaktiv darslar, o'quvchilar, ilmiy bilimlar, texnologik vositalar, dars samaradorligi.*

Bugungi kunda o'qituvchi va o'quvchilari oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi -darsning samaradorligi, uning sifatiligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'рни beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim. Mamlakatimizda deyarli barcha ta'lim maktablari kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yanada serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi. Tabiiy fanlar haqidagi bilimlar uzoq yillar davomida amaliy

izlanishlar tufayli qo'lg'a kiritilgan.

Pedagogika va psixologik tadqiqotlarga ko'ra inson ongi ma'lumotlarning 90 foiz foizini ko'rish, 9 foizini eshitish, 1 foizini esa his qilish orqali qabul qilar ekan bundan kelib chiqqan holda shu narsani takidlamodaki axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish oquvchilarning nazariy ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchilarning xotirasida u yoki bu voqea-hodisa jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimediali texnologiyalarda an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanishi o'quvchilarni darsga faolroq, diqqatliroq, intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga orgatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materialini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarning turlari;
- muhokama uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Tabiatni bilishda, uni anglashda ilmiy-amaliy tajriba, hamda amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rangbarang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o'rganuvchi fan bo'lib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyotesa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatning tabiat qonunlari haqidagi bilimlarini, ilmiy asoslangan amaliy faoliyatlarini bilish jarayonini ilm-fan taraqqiyoti belgilaydi. Nazariy bilimlar mazmun –mohiyatini anglashga bo'lgan ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi. Boshlang'ich ta'limda

tabiiy fanlar darsligi hozirgi kunda 1-sinf darslik kitoblaridan boshlab kiritilib kelmoqda. 1-sinflarning tabiiy fan kitobi ko'proq rasmlardan tashkil topgan ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida rasmi kitoblarga qiziqish kuchli bo'ladi. O'qituvchilar esa dars tashkil qilish jarayonida o'quvchilarni qiziqtiradigan multimediali vositalar va ko'rgazmali qurollardan foydalanishi bu dars samaradorligini oshiradi. Shiddat bilan rivojlanayotgan zanimimizda ta'lim sohasida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xususan maktab darsliklarida o'qituvchi va o'quvchilar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Masalan: Tabiiy fan darsliklarida o'quvchilar uchun mashq daftarlari mavjud. O'quvchilar shu bugun o'tgan mavzusiga doir mashqlarni bajarib mavzuni mustahkamlaydilar. Bu esa juda yaxshi samara beradi. O'quvchilar yuqori sinfga qarab borgan sari darsliklardagi ma'lumotlar ham murakkablashib boradi. Darsliklardagi rasmlarga doir qiyinlashib murakkablashib boradi. O'qituvchilar tabiiy fan darslarida ko'proq zamonaviy texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil qilsa bu darslar o'quvchilarning o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi. Masalan: 4-sinf tabiiy fan darsligida „O'simliklar“ bo'limini mavzularini yoritish jarayonida ko'rgazmalilik va video rolliklardan foydalanib dars o'tish mumkin. Tabiiy fan mavzusida asosan o'quvchilarning esida qolishi uchun zamonaviy texnologiyani qo'llash o'rinli.

Boshlang'ich sinf tabiiy fan darsliklarida texnologiyalar yordamida darslarni yanada interaktiv qilish mumkin. Misol uchun, multimedia vositalari (video, slaydlar) yordamida tibbiy fanlarga oid murakkab tushunchalarni o'quvchilarga yanada tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish mumkin. Masalan, inson organlarining tuzilishi va funksiyalarini tushuntiruvchi interaktiv videolar orqali o'quvchilar organlarning tarkibini va ishlash jarayonlarini to'liq ko'rishlari mumkin. Xususan boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida o'quvchilar uchun amaliy mavzular ham bor. Masalan tabiat hodisalar mavzularini o'quvchilar bilan amaliy tarzda kuzatish mumkin. Internetdagi turli resurslar tibbiy fanlar bo'yicha darslarni boyitish va o'quvchilarga yangiliklarni yetkazishda yordam beradi. O'quvchilar tibbiyotga oid ilmiy maqolalar, videolar, animatsiyalar va boshqa interaktiv materiallar yordamida o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

Boshlang'ich ta'limda tibbiy fanlar darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rganishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ular darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, bilim olish jarayonini samarali tarzda tashkil etish, mustaqil ishlashni rag'batlantirish kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, texnologiyalarni to'g'ri va samarali ishlatish uchun o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari lozim. O'quvchilarga axborot texnologiyalari yordamida tibbiy fanlar bo'yicha bilim berish, nafaqat ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu esa ularning kelajakdagi sog'liqni saqlash sohasidagi muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi axborot texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalansa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikrlar rivojlanib boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hadjaeva, G. (2021). "Axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi." Ta'lim va rivojlanish.
2. Kuzmina, T. (2020). "Informatika va tabiiy fanlar o'qitish metodikasi." Pedagogika va innovatsion texnologiyalar
2. Jumayeva Sh.S. Eshboboyeva M. THE ADVANTAGES OF USING PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN PRIMARY SCHOOL LESSONS. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 6, Issue 07, November(2023) .592-596p
4. B. A. Djurayeva T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlar ilmiy Tadqiqot Institute, Toshkent
3. Jumayeva Sh.S. The Role of Popular Culture in Youth Education . Miasto Przyszłości Kielce 2022.m
4. Kuzmina, T. (2020). "Informatika va tabiiy fanlar o'qitish metodikasi." Pedagogika

va innovatsion texnologiyalar

5.Makhliyo Haydarova. MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.7 No. 11, 2019 ISSN 2056-5852.

4.XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. International Conference on Advances in Education, Social and Applied Sciences. July 9th, 2022